



Buxoro viloyatida 2020-yilning yanvar oyida qurilish ishlari

2020-yilning yanvar oyida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi **243,2 mlrd. so'mni** tashkil qilib, o'sish sur'ati **106,1 %** ni tashkil etdi.


2020-yil yanvar oyida korxonalar va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi, jamiga nisbatan % da



yirik qurilish tashkilotlari



kichik korxonalar va mikrofirmalar



norasmiy sektor


Korxonalar va tashkilotlarning turi bo'yicha qurilish ishlari hajmi

Yirik qurilish tashkilotlari - 31,9 mlrd. so'm

Kichik korxonalar va mikrofirmalar - 178,8 mlrd. so'm

Norasmiy sektor - 32,5 mlrd. so'm

Hududlar kesimida qurilish ishlarining o'sish sur'ati, % da



Joriy yilning yanvar oyida Buxoro viloyatida o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 243,2 mlrd. so'mni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 106,1 % ni tashkil etdi.


Shuningdek, yirik qurilish tashkilotlari tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 31,9 mlrd. so'mni, kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 178,8 mlrd. so'mni hamda norasmiy sektor bo'yicha 32,5 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Mos ravishda yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 95,6 % ni, kichik korxonalar va mikrofirmalar

tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi bo'yicha o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 108,8 % ni va norasmiy sektor bo'yicha o'sish sur'ati 103,2 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning mos davriga nisbatan jami qurilish ishlarining hajmida yirik qurilish tashkilotlarning ulushi 1,4 % ga kamaygan, kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi 2,1 % ga oshgan, norasmiy sektor ulushi 0,7 % ga kamaygan.


**2020 yil yanvar oyida korxonalar va tashkilotlarning
turi bo'yicha qurilish ishlari tarkibi,
jamiga nisbatan % da**



Umumiy hajmda qurilish ishlarining turi bo'yicha taqsimoti


2020 yil yanvar

(jamiga nisbatan % da)



2019 yil yanvar

(jamiga nisbatan % da)



Qurilish ishlarning umumiy hajmidan 53,0 % i yoki 128,9 mlrd. so'm - yangi qurilish, rekonstruksiya, kengaytirish va texnik qayta qurollantirishga (o'tgan yilning mos davrida 54,2 % yoki 113,4 mlrd. so'm), 47,0 % i yoki 114,3 mlrd. so'm (o'tgan yilning mos

davrida 45,8 % yoki 95,7 mlrd. so‘m) - kapital ta'mirlash, joriy ta'mirlash va boshqa pudrat ishlariga to‘g‘ri keladi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar ijtimoiy soha ob'yektlarini (maktablar, kollejlarda, sport hamda sog‘liqni saqlash ob'yektlari va boshqalar) qurishda, namunali hamda arzonlashtirilgan va sotish uchun mo‘ljallangan turar joylarni qurishda, avtomobil yo‘llarini qurish, rekonstruksiya qilish, kapital va joriy ta'mirlash ishlarida qatnashmoqda.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining hajmi

Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha bino va inshootlarni qurilishiga 142,7 mlrd. so‘m, qurilish ishlarining umumiy hajmga ulushi 58,7 % ni, fuqarolik ob'yektlarini qurilishiga 50,7 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 20,8 % ni va ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi 49,8 mlrd. so‘m, umumiy hajmga nisbatan ulushi 20,5 % ni tashkil qildi.

mlrd. so‘mda

	Amaldagi narxlarda	Umumiy hajmga nisbatan, % da	shu jumladan iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha:		
			Bino va inshootlarni qurilishi	Fuqarolik ob'yektlarini qurilishi	Ixtisoslashtirilgan qurilish
Viloyat bo‘yicha jami	243,2	100,0	142,7	50,7	49,8
Davlat mulki	14,6	6,0	0,2	14,4	
Nodavlat mulki	228,6	94,0	142,5	36,3	49,8


Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo‘ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo‘ljallanmagan binolarni qurish bo‘yicha amalga oshirilgan qurilish

ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi o'tgan yilning mos davridagi ko'rsatkichga nisbatan 1,2 % punktga kamaydi.

Fuqarolik qurilishi ob'yektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,6 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hajmi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 2,8 % punktga ko'paydi.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining umumiy hajmiga nisbatan ulushi, % da



2020 yilning yanvar oyida mulkchilik shakli bo'yicha qurilish ishlari hajmi

Nodavlat mulkchiligi bilan qurilish korxonalarini tomonidan 228,6 mlrd. so'mlik qurilish ishlari bajarilgan, o'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati 108,1 % ni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 94,0 % ni tashkil qilib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 % punktga ko'paygan.

Davlat mulkchilik shakli tomonidan 14,6 mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan, oʻtgan yilga nisbatan oʻsish surʼati 82,2 % ni tashkil qilgan. Umumiy hajmga nisbatan ulushi 6,0 % ni tashkil qilib, oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 1,7 % punktga kamaygan.


	2020 yil yanvar oyi uchun, mlrd. soʻm	Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da	Umumiy hajmga nisbatan ulushi, % da
Jami mulkchilik shakli boʻyicha	243,2	106,1	100,0
Davlat mulki	14,6	82,2	6,0
Nodavlat mulki	228,6	108,1	94,0

2020 yil yanvar oyida hududlar kesimida qurilish ishlari

Viloyatda bajarilgan qurilish ishlari hajmida eng yuqori oʻrinni Buxoro shahri egalladi. Bajarilgan qurilish ishlari hajmi 56,9 mlrd. soʻm, oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 102,9 % ni tashkil qildi. Keyingi oʻrinni Gʻijduvon tumani egalladi. Mazkur tumanda qurilish ishlari 23,0 mlrd. soʻmni, oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 106,6 % ni tashkil qildi. Qorovulbozor tumanida esa 22,1 mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilgan boʻlib, oʻsish surʼati oʻtgan yilning mos davriga nisbatan 129,7 % ni tashkil qildi.

	2020 yil yanvar, mlrd. so‘m	2019 yil yanvar, mlrd. so‘m	O‘shish sur‘ati, % da
Jami	243,2	209,1	106,1
Buxoro sh.	56,9	50,3	102,9
Kogon sh.	6,4	7,6	76,7
Olot	16,6	14,9	101,6
Buxoro	18,3	15,5	107,5
Vobkent	7,1	5,9	109,4
G‘ijduvon	23,0	19,9	106,6
Kogon	20,2	17,5	104,7
Qorako‘l	8,8	7,9	100,6
Qorovulbozor	22,1	15,5	129,7
Peshko‘	11,7	9,8	108,5
Romitan	16,6	13,0	116,8
Jondor	18,3	15,9	106,7
Shofirkon	17,2	15,4	101,8

**2020 yilning yanvar oyida hududlar kesimida
qurilish ishlarining ulushi,
jamiga nisbatan % da**



Viloyatda bajarilgan qurilish ishlarining umumiy hajmida 23,5 % ulushi bilan Buxoro shahri yetakchilik qilmoqda. Keyingi pog'onani 9,5 % ulushi bilan G'ijduvon va 9,1 % bilan Qorovulbozor tumanlari egalladi.

Investitsiya va qurilish statistikasi bo'limi

Nashr uchun mas'ul:

O. Jabborov

Aloqa telefoni:

223-81-99, 0(371)230-83-10